



Sarvar TOJIBOYEV,

Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: alfaragoniy.uz@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori A.Muxtorov taqrizi asosida

BOSHQARUV KADRLARIDA HALOLLIK VA FIDOIYLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIALEKTIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada boshqaruv kadrlarida halollik va fidoiylilik fazilatlarini rivojlantirishning dialektik mexanizmlari tahlili qilingan. Shuningdek, rahbarlik faoliyatini asosi hisoblangan oqibatililik, bag'rikenglik xususiyatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Halollik, fidoiylilik, jo'mardlik, ma'naviy va kasbiy faoliyat, axloq falsafasi, mansab, altruism.

ДИАЛЕКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ХАРАКТЕРОВ ЧЕСТНОСТИ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ УПРАВЛЯЮЩИХ ПЕРСОНАЛОВ

Аннотация

В статье анализируются диалектические механизмы развития качеств честности и целеустремленности управленческих кадров. Также научно обоснованы характеристики толерантности и толерантности, являющиеся основой лидерской деятельности.

Ключевые слова: Честность, целеустремленность, щедрость, духовная и профессиональная деятельность, моральная философия, карьера, альтруизм.

DIALECTIC MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF THE CHARACTERS OF HONESTY AND DEDICATION IN MANAGEMENT STAFF

Annotation

The article analyzes the dialectical mechanisms of developing the qualities of honesty and dedication in management personnel. Also, the characteristics of tolerance and tolerance, which are the basis of leadership activities, are scientifically based.

Key words: Honesty, dedication, generosity, spiritual and professional activity, moral philosophy, career, altruism.

Kirish. Ma'lumki, kadrlar masalasi hanuzgacha hukumat oldidagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Boshqacha aytganda, rahbarlik bu faqat reja bajarish, deb tushunish hamon saqlanib qolmoqda. Aynan ana shu tufayli jamiyatda ro'y beradigan har qanday salbiy jarayonlarda viloyatlar va tumanlardagi birinchi shaxslar aralashib qolmoqda. Ko'pgina hollarda ularning e'tiborsizligi tufayli tumanlar yoki viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar to'xtab qolayotgan bo'lsa, ayrim hudadlarda aksincha, rahbarning faolligi tufayli shu jarayonlar jadallahmoqda.

Mansab kursisida o'tirgan, jamoa nomidan ish yuritadigan ba'zi shaxslar o'zining bemaza ishlarini yashirishga qancha urinmasin jamoatchilikka nisbatan adolat buzilayotganini ko'rib, bunday rahbarlarning quyushqondan chiqib ketayotganini baribir sezadi. Qachonki rahbarning yuragi ham, qo'li ham toza bo'lsa, tamadan, g'arazdan yiroq bo'lsa uning tabiatida qat'iyatlik bilan vazminlik talabchanlik bilan aql-zakovat uyg'un bo'lsa, faqat shundagina u odamlarning g'am-tashvishini o'z qalbidan o'tkazishga qodir bo'ladi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va jamiyatni boshqarishda millatimizning ziynati, diniy dunyoqarashi va milliy ruhiyati asosida siyosat yuritilganligi barqarorlikni saqlashda ayniqsa qo'l keldi. Jumladan, davlat rahbarining rahbarlarga lavozimga tayinlanish oldidan yoki turli ma'ruzalarida aytadigan insof, vijdon, imyon, xalq ishonchi, vatan, tuproq, ota-bobolar, alloh va hakozo qadriyatlар bunga misol bo'lishi mumkin.

Hayotini xalq xizmatiga bag'ishlash, o'zidagini o'zgalar bilan baham ko'rish, muholtolgarda yordam berish, ustoz va do'st nomusi-sharafini himoya qilish – xalollik va fidoiylilik fazilatining asosiy talablaridan hisoblanadi. O'zbek xalqi tarixida bunday fazilatli kishilar ko'p bo'lgan. Bundan

tashqari, xalqimiz ma'naviy hayotida asosiy maqsadini xalollikni va fidoyilik targ'ibotiga qaratgan so'fiylik tariqati yo'llari ham mavjud. Bular manbalarda - javonmardlar, axiyalar yohud fatiylar deb atalgan.

Materiallar va metodlar. G'arbdan jo'mardlik (javonmard) tamoyili altruizm nomi bilan mashhur.

Axloqshunos olim Abdulla Sher jo'mardlikni axloq falsafasi tamoyili sifatida talqin etadi. Jo'mardlik - kishidagi o'z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O'z manfaatidan o'zga manfaatini ustun qo'yib, "o'z og'zidagini o'zga og'ziga tutib" yashash jo'mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu - oddiy xayriya emas, balki muholtolikning har qanday ko'rinishiga qarshi o'ziga xos kurashdir. Ammo bu kurash insonparvarlik, vatanparvarlikdagi singari qat'iy jamiyat yoki jamoaning axloqiy-me'yoriy talablaridan kelib chiqmaydi, u faqat va faqat xususiylik tabiatiga ega, har bir shaxsning erkin ixtiyori bilan bog'liq axloqiy tamoyil[1]. Chunonchi, biror kishi tomonidan insonparvarlik talablarini bajarmaslik boshqalarda unga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi, jo'mardlik ko'rsatmagan odam esa bunday ma'naviy javobgarlikka tortilmaydi. Zero, jo'mardlik mohiyatan «oddiiy odamlik qobig'idan chiqqa bilish», ilohiylik sifatlariga ega bo'lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Pahlavon Mahmud pahlavonlarni tarbiyalovchi ustozligi bilan birga yosh vatanparvarlarga, askarlarga javonmardlik odobini o'rgatuvchi pir bo'lgan. Javonmardlarning shiori dunyodagi yovuzlikning barcha ko'rinishlariga qarshi hamisha, hamma yerda ezgulikni himoya qilish, targ'ib etish va qo'llab-quvvatlashdan iborat

bo'lgan. Shu bois bu g'oyalar Pahlavon Mahmudning ko'pgina ruboiylarida o'z aksini topgan.

Koshifiy futuvvatni javonmardlik sifatida talqin etadi, ya'ni "istiloh sifatida futuvvat deb, omma orasida yaxshi sifatlar va namunali axloqi mashhur bo'lishni aytadilar, shu vajdankim, bunday odam hamisha axloqi bilan o'z kasbdoshlari, toifa, tabaqasi orasida mumtoz bo'ladi. ... futuvvat ahsga vafo qilmoqdir ... zero vafo javonmardlarning ishidir va ahdu paymonni sindirish, ahdga vafo qilmaslik nuqsi vijdonning nuqsidir. Futuvvatning uch martabasi bor: avval sahovat, ya'ni bor narsasini hech kimdan qizg'anmaslik. Ikkinchisi safo, ya'ni qalbni kibru havo, gina kudrat, qasd-g'azabdan pokiza, pok tutish. Uchinchisi vafo ya'ni hamma vaqt xalq xizmatida bo'lisch" [2]. Javonmardlikning nihoyati yaxshilik yo'lida jondan kechishga tayyor turish, fidoyi qalb egasi bo'lishdir. Shu ma'noda, javonmardlikning butun mohiyati quyidagi ikki sifatda mujassamdir: biri – do'stlarga naf yetkazish, ya'ni, saxovat; ikkinchisi –dushman zararidan himoya qilish, ya'ni shijoat.

Arab sayyohi Ibn Batuta (XIII asr) sarbadorlarni javonmardlardan deb hisoblaydi va o'zining "Safarnoma" kitobida yozadi: "Men dunyonи kezib, bunday odamlar (ya'ni javonmardlar)dan ko'ra ezgu niyatli va ezgu xulqli kishilarni ko'rmadim" [3], - degan fikrni bildiradi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining "Sarbadorlar" romanida ham javonmardlik tariqati vakillarining shijoati, jasorati va hamjihatligi haqida ta'sirchan mulohazalarni bildirilgan. Ayniqsa, asarning "Tun sultanining" bo'limalda Axiy Jabbor - javonmardlikning namunasi sifatida gavdalantirilgan [4].

Muhokama va natijalar. Hallolik va fidoyilik axloqiga xos fazilatlar Turon zaminida shakllangan futuvvat ahllari yoki jo'mard kishilar faoliyatida ham o'z aksini topgan. Futuvvat axlining fazilatları haqida arab va fors tillarida yozilgan kitoblar talaygina. Bundan tashqari, mashhur Musulmon Sharqi pandnomalarida, tasavvuf haqidagi risolalarda ham javonmardlarning odobi va fazilatları xususida fikrlar keltiriladi. Jumladan, Husayn Voiz Koshifiyining «Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati xususida» nomli risolasi bu ilming ko'p qoida-nizomolarni qamrab oglani hamda ma'naviy merosimizda xalolik va fidoyilik talablari zikr etilgan muhim manba ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Javonmardlikka ko'proq pahlavonlar talabgor bo'lganlar. Jumladan, Pahlavon Mahmud Xivadagi futuvvatchilar jamoasining boshlig'i, javonmardlar peshvosi bo'lgan. Uning o'zi ham mardlik va saxovatning eng oliv namunalarini ko'rsatib, boshqalarga ibrat bo'lgan.

Jo'mardlik - har qanday holatda o'zgani himoya qilish, asrash, o'zga uchun kurashish, unga tinchlik, ezunglik ravvo ko'rishdir. Xudbinlik - sharqona jo'mardlik axloqiy tamoyili va insofillik axloqiy meyo'riga mutlaqo zid bo'lib, u o'z individual ehtiyojlarini hamma narsadan yuqori qo'yadigan illatdir. Bu tushuncha insonning moddiy-maishiy manfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo'yishga intiladi; manfaat va o'z shaxsini mutlaqlashtirishga qaratilgan shaxsiyatparastlik harakatlar majmuuni ifodalaydi. Agar jo'mardlik biror shaxs, jamoa yoki jamiyat baxti, farovonligi yo'lida kishining hatto o'ziga eng zarur bo'lgan narsalardan ham voz kechishiga tayyor turishini anglatса, xudbinlik o'z manfaatlari yo'lida, hech kimni, hech bir jamoani, hech qanday jamiyatni tan olmaydigan salbiy me'yor egasining bo'rtib ko'zga tashlandigan xususiyati. To'g'ri, hammaning ham qo'lidan jo'mardlik kelavermaydi, lekin insonning o'ziga bo'lgan muhabbat, boshqalarning ham o'ziga shunday muhabbat birligini inkor etmasligi kerak. Shu qoida buzilgan joydan xudbinlik boshlanadi. Shu boisdan, jo'mardlik axloqiy tamoyilini hozirgi paytda zamonamiz hayotiga kirib kelgan salbiy ma'nodagi pragmatizmga qarshi kurashda, jamiyatda

axloqiy muhitni sog'lomlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadigan harbiy vatanparvarlik fazilati sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda mamlakatda o'z yechimini kutayotgan muammolar, avvalo, jamiyatini yangilash va isloh qilish, xalqning og'irini yengillatish yo'lida g'ov-to'siq, bo'lib turgan salbiy holatlar yana bir bor aniqlab olish va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Aholini ish va daromad bilan ta'minlash, xalqning tur mush darajasini oshirish kabi qator dolzarb masalalarning joylarda hanuzgacha hal bo'lmay kelmoqda. Jumladan, inson huquq va manfaatlarini himoyalash, aholining ta'minoti va ijtimoiy muammolarni yechish singari muhim masalalarga bepisandlik bilan qarash, qonunbuzarlik, tamagirlilik, o'z vazifasini suiste'mol qilish holatlari xamon uchrab turganini, bunday salbiy ko'rinishlarni qonun asosida bartaraf etish hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

Bugungi kunda hukumat oldida turgan vazifalarning to'laqonli bajarilishi ikki talabga bog'liq ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Birinchi talab – har bir mutasaddi rahbarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish. Ba'zi vazirlar yil davomida biron narsa to'g'risida hech qanday taklif va tashabbus bilan chiqmaydi. Ularning xayolida bir gap hech kim menga tegmasa bas, tinchgina kunim o'tsa bo'lidi. Bu eng noma'qul, kerak bo'lsa, eng zararli yondashuvdir.

Ikkinci masala - hukumat a'zosi sifatida katta ishonch yuklatilgan hukumat a'zolarida vazifaga munosib bo'lish uchun tegishli bilim va tajriba, yuqori malaka bo'lishi shart. Boshqacha aytganda egallab turgan lavozimiga munosib bo'lish faoliyatning samarali bo'lishining muhim shartidir. Ar bir mutaxassis yoki rahbar o'z ishining ustasi bo'lish, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqr bilish kerak.

Prezidentimizning e'tiborini tortadigan yana bir muhim masala davlat xodimlarini lavozimga tanlash va tayinlash bilan bog'liq. Bu haqda gapirganda, ko'p uchraydigan mahalliychilik va oshna-og'ayningarchilik deb nom olgan noxush bir holatni aytishga to'g'ri keladi. Bir nomzodga ishonch bildirilib, vazirlik lavozimiga qo'yilib yarim yil-bir yil o'tgach u boshqarayotgan sohaning ahvoli bilan kiziqilsa, u albatta mahalliychilik va oshna-og'ayningarchilik kasaliga duchor bo'ladi. qachonki, kadrlar masalasining davlat ishiga eng katta ziyon yetkazadigan mana shunday salbiy tomonlari bartaraf etilsa, ko'p muammolarni yechishga imkon tug'iladi. Asosiy vazifa qayerda shunday kasallik paydo bo'lishining ildizlarini aniqlab, o'z vaqtida chorasi ko'rishdan iborat. Bordiyu kasallik kuchayib ketsa, umi jarrohlik yo'li bilan kesib tashlash, lo'nda qilib aytganda, noplak va noqobil kadrlardan voz kechishdan boshqa iloj qolmaydi. Chunki bitta bemaza rahbar nafaqat ishni barbob qilishi, balki minglab insonlarning hayotini buzishi mymkin.

Yangi davr, yangi rahbar kadrlarni shakllantirish, yangi - sharqona tanqid madaniyatini shakllantirishni taqozo qiladi. Sharqona tanqid madaniyatni bu - tanqidning yaxshi niyat bilan qo'shib aytilishi, milliylik, samimiylilik, tanqid qilinuvchining shaxsiyatiga hurmatning namoyon bo'lib turishi; tanqid qilinayotgan kamchilikning tanqid qilinuvchidagi ijobiy sifatlarini ham qayd qilish, millat va davlat manfaatlarini ustuvorligi, yaratuvchilik, konstruktivlik, ma'naviylik, «moziyga qaytib ish ko'rish» tamoyili uyg'unligidir. Bu insonlar, xodimlar, fuqarolardagi salbiy sifatlarini susaytirish, ijobiy sifatlarini kuchaytirishga sharoit yaratadi. Taqqidlash - ijobiy sifatlarini o'stradi. Tanqid - salbiy sifatlarini so'ndiradi. Buning formulasi qanday? Bunga buyuk, milliy, ibratli tariximizda ko'plab dalillari bor. Ana shunday millat va davlat ustuvorligi, nasihat, tanqid, yaxshi niyatlar majmuasidan biri Kul Tegin obidasida bor: «Chin millatining so'zi totli, shirin, ipak to'qimasi yumshoq emish. Shirin so'z

ila, yumshoq ipak to‘qima ila aldarab, uzoq millatni shu tarzda yaqinlashtirar emish. Yaxshi bilimli insonni yurgizmas emish. Bir inson nomuvofiq ish qilsa, qabilasi, millati, qarindoshurug‘lariga qadar yashatmas emish. Shirin so‘ziga, yumshoq to‘qimasiga aldanib, ko‘pdan-ko‘p Turk millati, o‘lding. Turk millati, o‘lajaksan!» Naqadar samimiyl milliy tanqid. Bu millatni nizomga, tartibga solgan xoqon so‘zlarida yuqorida keltirganimiz sharqona tanqidning barcha ustuvor unsurlari mujassam. Shu sababli bunday tanqid millat, xalqda ijobjiy sifatlarning ko‘payishiga, salbiy sifatlarni susayishishiga xizmat qilgan.

Germaniyada bo‘lajak rahbarning axloqiy va tashkilotchilik sifatlariiga talab kuchaytirilmoxda. Amerika va Germaniya psixologlarining tadqiqotlari natijalari asosida rahbar xodimlarni tanlab olishning quyidagi qoidalari ishlab chiqildi:

1. Tanlanayotgan rahbarning ma’naviy va kasbiy sifatlari u bajarishi kerak bo‘lgan vazifalarga qat’iyan mos bo‘lishi kerak.
2. Pahbar o‘zidan quyidagi rahbar xodimlardan hech bo‘lmaganda bir fazilat bilan ustun bo‘lmog‘i kerak.
3. Pahbar va jamoa manfaatlari uyg‘un bo‘lishi kerak.
4. U yoki bu kishining rahbar bo‘la olishmini oldindan aytib berishning eng yaxshi usslublaridan biri uning biografiyasini psixologik tahlil qilmoqdir.

Yaponiyada taraqqiyot mo‘jizasining ilk iqtisodiy manbai texnologiyalarni keltirish, ishga tushirishdan boshlangan bo‘lsa, milliy-ma’naviy manbai “inson omili” poydevorining vatanparvarlikka qurilgani bo‘ldi. Bu xususiyat o‘z navbatida kadrlar siyosatida ham aksini topdi.

Rahbarlikning o‘ziga xos mas‘uliyati bo‘lgani sababli, uning yukini ko‘tarish hech qachon oson bo‘lmagan. Lekin buyuk maqsad sari intilayotgan, o‘ziga xos o‘tish davrini boshdan kechirayotgan, ijtimoiy-siyosiy islohotlarniamalga oshirayotgan mamlakatimizda rahbar bo‘ladigan shaxs barcha talablarga javob berishi shart. Chunki yurtimizda islohotlar hamrovi tobora kengaygani sari yangi vazifalar ko‘لامи ham shunga yarasha oshib bormoqda. Bu vazifalarningamalga oshirilishi, avvalo, jamiyatimizda tinchlik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, xavfsizlikning ta‘minlanishi bilan bog‘liqidir.

Bugungi rahbar qanday pog‘onada bo‘lishidan qat’i nazar, vujudga kelgan vaziyatni inobatga olgan holda, faoliyatini tashkil qilishi kerak. Jumladan, yurt xavfsizligi, tahdidiga nisbatan “ogohlik” tushunchalari kattayu kichik

rahbarlarga tegishli ekanini ham anglab yetishimiz darkor. Masalan, mahalla tinch, osoyshta bo‘lsa, tuman ham tinch bo‘ladi, tumanda tinchlik bo‘lsa, viloyat miqyosida ham shunday holat bo‘ladi. O‘z navbatida, bu mamlakatimizda osuda hayot hukm surayotganini bildiradi. Demak, tinchlik, xavfsizlik uchun jon kuydirish nafaqat yuqori lavozimdag‘i rahbarlarning, balki quyi pog‘ona mas‘ul shaxslarning ham vazifasidir. Shu o‘rinda bir masalaga e’tibor qaratmoqchimiz. Ma’lumki, diniy aqidaparastlar xuruji, avvalo, mahalla yoshlariga qaratilgan. Chunki ular davlat va jamiyat boshqaruvining eng quyi pog‘onasi hisoblangan mahallalarda rahbarlik qilayotgan shaxslar faoliyatida tahdid omiliga nisbatan loqaydlik kayfiyatini sezsa olishadi. Mahalla rahbariyati va faollari, mahalla masjidlari imom-xatiblari o‘z hududidagi yoshlarning yurish-turishi, tarbiyasiga jiddiy e’tibor berganida, balki, ko‘pgina nojo‘ya xatti-harakatlarning oldi olingen bo‘lur edi. Afsuski, mahalla oqsoqollar ni hali ham xavfsizlik va tahdid mhammosini yuqori tashkilotlar rahbarlarining vazifasi deb qadamоqda. Vaholangki, biz uchun xavfsizlik yaxlit va bo‘linmasdir. Ushbu qoida nafaqat mamlakatimiz tashqi siyosatiga, balki ichki hayotimizga ham taalluqli. Shuning uchun barcha rahbar mas‘ul shaxslar bu qoidani chuqur anglashi va o‘z faoliyatiga joriy qilishi lozim.

Xulosa. Umumjamiat xavfsizligini ta‘minlash vazifasi barcha rahbarlarning burchi degan g‘oya bugungi kunda, nafaqat hududiy boshqaruv rahbarlarining, balki mamlakatimizdag‘i mayjud barcha tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonalarini boshliqlariga ham taalluqlidir. Chunki ular ham jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lgan odam lar bilan birga ishlashadi. Kichik bir hamoa xo‘jaligining rahbarimi yoki yuqori lavozimdag‘i mansabdor shaxsmi yoinki korxona yetakchisimi, u o‘z idoraviy xo‘jalik yumushlari doirasi bilan cheklanib qolishi mumkin emas. Bugungi rahbar o‘z hamoasining ahvoli, xodimlarning ijtimoiy-siyosiy kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-intilishlari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishi shart. Tajribadan ma’lumki, ba’zan oddiy, kichkina ko‘ringan narsalar ham tahdid omiliga xizmat qilishi mumkin. Masalan, korxonadagi oddiygina ko‘ringan masala vaqtida hal etilmasa, u xodimlarning ommaviy noroziligiga sabab bo‘lishi hech gap emas. Ayian shunday vaziyatlar g‘animlarimiz, diniy aqidaparastlarga qo‘l keladi. Vaholangki, o‘zoqni ko‘zlagan, keng fikrlay oladigan rahbar vaziyat chuqurlashib ketmasidanoq, oldindan unga qarshi choradibirlni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. - 188 b.
2. Husayn Voiz Koshify. Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati. -Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq meroisi nashriyoti, 1994. – 77 b
3. Muhammad Ali. Sarbadorlar. Tarixiy roman. Dilogiya. -Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011.
4. Ibragimov N. Ibn Batuta i yego putishesviya po Sredney Azii. -Moskva: Nauka, 1988.